XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 4-dekabr VII-2-016-5-78-K/24 Zarafshon shahar

Zarafshon shahrida geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi majlisining 2024-yil 10-maydagi 35-son bayoni topshiriqlari asosida Davlat kadastrlari palatasi shahar filiali tomonidan o‘tkazilgan xatlov natijasida shaharda aniqlangan va toifalarga ajratilgan 193 ta ko‘chani nomlash bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlarining takliflari shahar komissiyasining 2024-yil 20-avgustdagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, tegishli hujjatlar viloyat komissiyasiga taqdim etilgan.

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 4-, 6-, va 10-moddalariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida” 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son qaroriga muvofiq shahardagi 5 ta mahalla fuqarolar yig‘inidagi 193 ta geografik obyekt (ko‘cha)ni nomlash bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqilgan va O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, ekspertiza xulosasi tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 16-sentabrdagi 03/08-8943-sonli xati, ekspertiza xulosasi va bayoniga asosan, shahar hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi O. Xotamovaning axborotini atroflicha muhokama qilib, O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalari muvofiq, xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 16-sentabrdagi 03/08-8943-sonli xati va ekspertiza xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Respublika ekspert komissiyasining ekspertiza xulosasiga asosan qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan Zarafshon shahridagi 193 ta geografik obyekt(ko‘cha)ning nomi 1-ilovaga;

shahardagi mahallalarning chegarasi, toifalangan ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritalar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimi o‘rinbosari (X. Oripov), Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali (U. Ochilov), shahar soliq inspeksiyasi (R. Baxronov), shahar statistika bo‘limi (D. Sobirova), shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N. Xolov), Davlat xizmatlari markazi (K. Ishankulova)ga tegishli mutasaddi davlat organlari bilan birgalikda Qonun hujjatlariga muvofiq deb topilgan 193 ta ko‘cha nomi bo‘yicha ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish bilan bo‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

4. Shahar ichki ishlar bo‘limi (S. Latipov) geografik obyekt(ko‘cha)ning nomlari aholining fuqarolik pasportlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarining tashkiliy ravishda amalga oshirilishi yuzasidan zarur chora-tadbirlarni belgilasin.

5. Davlat kadastrlar palatasi shahar filiali (U. Ochilov), O‘zbekiston mahallalari uyushmasi Zarafshon shahar bo‘limi (D. Xusenov) hamda mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga:

mazkur qarorning 2-ilovasi bilan tasdiqlangan har bir mahallaning chegarasi, toifalangan ko‘chalar nomi ko‘rsatilgan xaritasini mahalla idorasiga o‘rnatish choralarini ko‘rish;

geografik obyektlar(ko‘chalar)ning nomlanayotganligi munosabati bilan aholi o‘rtasida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish;

shahar obodonlashtirish boshqarmasi bilan hamkorlikda hududlardagi nom berilgan ko‘chalarga ularning nomlari qayd etilgan metall ko‘rsatkichlar o‘rnatish vazifalari topshirilsin.

Belgilansinki, geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

6. Shahar hokimligi axborot xizmati (G. Jabborova)ga mazkur qarorni “Oltin vodiy” gazetasida e’lon qilish hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga, shuningdek qaror ijrosini ta’minlash Geografik obyektlarga nom berish va ularning nomlarini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi zimmasiga yuklansin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiyaga raislik qiluvchi  DAVLATOV ERKINJON XUDOYNAZAROVICH